

Sening ahlingdan emas



13:05 / 27.01.2020 3151

21

Nuh Robbiga nido qilib: «**Robbim, albatta, o'g'lim ahlimdandir, albatta, va'dang haqdir va Sen hukm qilguvchilarning eng hikmatlisisan**», dedi. (Hud-45).

Alloh nasl-nasabga qaramaydi, balki amallarga qaraydi. Alloh shirk keltirganlarda, shafolat (o'rtadagi kafolat)ni qabul qilmaydi. Shirk keltirgan, payg'ambarning o'g'li bo'lsa ham uning aholidan emas. Alloh Nuhga bu xususda tanbeh berib: **“Ey Nuh, albatta u (o'g'il) ahlingdan emas. Albatta, u yaxshi amal emasdir. O'zingning ilming bo'lmagan narsani zinhor so'ramagin. Men senga johillardan bo'lmasligingni nasihat qilaman”**, (Hud-46) dedi.

Nuh bundan ogoh bo'ldi va Allohga tavba qilib: **“Robbim, men o‘zimning ilmim bo‘lmagan narsani sendan so‘ramoqdan panoh tilayman. Agar meni mag‘firat qilmasang va menga rahm ko‘rsatmasang, ziyon ko‘rguvchilardan bo‘laman”**, (*Hud-46*) dedi